

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**YULDASHEV SHOHJAHON ABROROVICH**

**XALKOGENID BIRIKMALAR NEGIZIDA AVTONOM  
OPTOELEKTRON QURILMALAR YARATISH**

**01.04.10 - Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasining avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract  
of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences**

**Yuldashev Shohjahon Abrorovich**

Xalkogenid birikmalar negizida avtonom optoelektron qurilmalar yaratish ... 3

**Юлдашев Шохжахон Аброрович**

Создание автономных оптоэлектронных устройств на основе халькогенидных соединений ..... 21

**Yuldashev Shokhjakhon Abrorovich**

Creation of autonomous optoelectronic devices based on chalcogenide compounds ..... 39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 43

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**YULDASHEV SHOHJAHON ABROROVICH**

**XALKOGENID BIRIKMALAR NEGIZIDA AVTONOM  
OPTOELEKTRON QURILMALAR YARATISH**

**01.04.10 - Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/T2595 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Farg'ona davlat uni bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ispm.uz) va «ZiyoNeb» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Onarkulov Karimberdi Egamberdiyevich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Egamberdiyev Baxrom Egamberdiyevich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Dauletmuratov Boribay Koptleuovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «19» 05 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent sh., Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy, Tel.: (+99871)248-79-94, faks: (+99871)248-79-92, e-mail: [info@ispm.uz](mailto:info@ispm.uz).)

Dissertatsiya bilan institutning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (58 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel.: (+99871) 248-79-59; e-mail: [info@ispm.uz](mailto:info@ispm.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «05» 05 kuni tarqatildi.  
(2024-yil «05» 05 dagi 58 raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.B. Utamurodova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
rust, f.-m.f.d., professor

**J.J. Hamdamov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy Kengash ilmiy kotibi, PhD, k.i.x.

**N.A. Turgunov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, f.-m.f. d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqyosida elektrostatik maydonlar fan, texnika va inson faoliyatining ko‘plab sohalarida qo‘llanilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda elektrostatik maydon olish uchun maxsus tashqi manba va yetarlicha katta energiya talab etiladi. Deyarli barcha mamlakatlarda an’anaviy elektr energiyasi manbalari elektrostatik maydon qurilmalarining uzluksiz, mustaqil ish rejimini ta’minlash imkoniyatiga ega emas. Qolaversa, elektr energiyasining mavjud amaldagi manbalari mikroelektronika talablariga to‘liq javob bera olmaydi, jumladan ular energiya tejamkor va qulay emas. Bu borada yarimo‘tkazgichlar asosida yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan energiya o‘zgartirgichlar olish va ular asosida yangi tipdagi optoelektron qurilmalar yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda mikroelektronika talablariga javob beradigan noan’anaviy, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, hozirgi zamon mikro-optoelektronikasida elektrostatik maydon hosil qilishning mikroelektronika sohasining talablariga javob beradigan, optoelektron prinsiplariga asoslangan qurilmalar yaratish sohasida yarimo‘tkazgich yuqqa pardalardan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish muhim masalalardan biridir. Shundan kelib chiqib, yangi optronlar tayyorlashning ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqish, yangi funksional imkoniyatlari keng optronlar yaratish uchun yarimo‘tkazgichli materiallar olish hamda ularning qo‘shimcha imkoniyatlarini tadqiq qilish optoelektron qurilmalar samaradorligini yaxshilash imkonini beradi.

Respublikamizda yarimo‘tkazgichli asboblarning fizikasi va elektronika sohasi taraqqiyot etib bormoqda. Bu o‘rinda, 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “...ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish masalalari, ishlab chiqarishga energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish...”<sup>1</sup> kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, yarimo‘tkazgichlar asosida yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan energiya o‘zgartirgichlar olish va ular asosida yangi tipdagi optoelektron qurilmalar yaratish, ularni qo‘llanish sohalarini kengaytirish masalalarini hal qilishga qaratilgan ilmiy amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2020-yil 10-iyuldagi PQ-4779-son “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi, 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son «Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-5841063>

boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo'nalishlarining III. "Energiya, energiya resurslarini tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi:** Mikroelektronika va optoelektronika sohasida yarimo'tkazgichli elementlar olish (xususan, p-n o'tishli strukturalar), ularning elektrofizik va fotoelektrik xarakteristikalarini tadqiq qilish, ular asosida optoelektron qurilmalarni ishlab chiqish hamda qo'llanish sohaslarini kengaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida olib borilmoqda. Xususan, Zhi Jiang (Yaponiya), Tomoyuki Yokota (Yaponiya), Kenjiro Fukuda (Yaponiya), Hanbee Lee (Koreya), K.Swapna (Hindiston), Sk.Mahamuda (Hindiston), A.Srinivasa Rao (Hindiston), Pallab Bhattacharya (AQSh), Roberto Fornari (Germaniya), A.Darwish (BAA), H.Ali (BAA), Y.Hiroo, V.I.Stafeev (Rossiya), V.N.Davidov (Rossiya) lar tomonidan optoelektron qurilmalarning samaradorligini oshirish, fotoelektrik va elektrofizik xarakteristikalarini o'rganish, ularning integral sxemalarda qo'llanishi bo'yicha tadqiqot ishlari o'tkazilgan.

O'zbekiston olimlaridan R.A.Mo'minov, A.T.Mamadlimov, M.K.Baxadirxanov, S.Z.Zaynobiddinov, M.S.Saidov, A.M.Kasimaxunova, K.E.Onarkulov va ularning shogirdlari tomonidan yarimo'tkazgichlarning xususiyatlariga turli kiritmalarning ta'siri, yangi tipdagi yarimo'tkazgich materiallar olish, yupqa pardalarida anomal yuqori fotokuchlanish (AFK-effekt) va anomal yuqori fotomagnit kuchlanish (AFMK-effekt) effektlari, optoelektron asboblarda qurilmalar yaratish, fotoo'tkazuvchi yarimo'tkazgichli xalkogenid materiallar va ularning yupqa pardalarini olish va boshqa sohalari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq xalkogenid yarimo'tkazgich materiallardan (CdTe, CdS) yupqa pardalarini olish, xalkogenid yarimo'tkazgich yupqa pardalarida fototermoelektrik hodisalarni tadqiq etish, xalkogenid yarimo'tkazgich yupqa pardalarida fotomagnitoelektrik, yorug'lik va qutblangan yorug'lik intensivligining modulyatsiyasi bilan bog'liq effektlarni ifodalash, xalkogenid yarimo'tkazgich yupqa pardalarida deformatsiya bilan bog'liq hodisalarni tahlil etish hamda mexanik ta'sirni elektr maydonga aylantira oladigan optoelektron qurilma yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq dissertatsiya tadqiqoti OT-F2-66 "Yarimo'tkazgichlar va ularning nanostrukturalarida fotonli kinetik samaralarning nazariy tadqiqi" (2017-2020 yy.) ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xalkogenid yarimo'tkazgich materiallar asosida avtonom optoelektron qurilmalar yaratish va ulardagi fotoelektrik, fotomagnitoelektrik, tenzoelektrik va termoelektrik hodisalarni o'rganishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

turli funksional maqsadlarga mo'ljallangan maxsus avtonom mikro- va optoelektron qurilmalar tayyorlashga mo'ljallangan xalkogenid yarimo'tkazgich materiallardan (CdTe, CdS) yupqa pardalar olish texnologiyasini takomillashtirish;

xalkogenid yarimo'tkazgich yupqa pardalarida fototermoelektrik hodisalarni va qutblangan yorug'lik modulyatsiyasining ta'sirini o'rganish;

yorug'lik va magnit maydonni elektr maydoniga aylantirish uchun optoelektron qurilmani ishlab chiqish;

xalkogenid yarimo'tkazgichlarning yupqa pardalarida deformatsiya (pyezoelektrik effekt) bilan bog'liq hodisalarni o'rganish va mexanik ta'sirni elektr maydoniga aylantirish uchun optoelektron qurilmani ishlab chiqish;

issiqlikni elektr maydoniga aylantira oladigan xalkogenid birikmalari asosida avtonom optoelektron qurilmani ishlab chiqish va yaratish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida kadmiy xalkogenidlari CdTe, CdS va shisha, kvars, saffir tagliklari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** CdTe, CdS asosida yuqori ishchi parametrlarga ega bo'lgan yupqa pardali foto qabul qilgichlar olishning fizik jarayonlari, bir jinsli bo'lmagan yupqa pardalar hosil qilishning usullarini ishlab chiqish va ular asosida optoelektron qurilmalarni yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Qo'yilgan vazifalarni hal qilishda: CdTe CdS asosidagi yarimo'tkazgich yupqa pardalarni olish uchun vakuumda bug'lantirish usulidan, olingan yupqa pardalarning spektral xarakteristikalarini tadqiq qilish uchun spektroskopiya usulidan, fotoelektrik va termoelektrik parametrlarini aniqlash uchun fotoelektrik va termoelektrik kattaliklarni o'lchash qurilmalari majmuasidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uchuvchanligi bilan farq qiluvchi izovalent materiallarni (S, Te) vakuumda termik anizotrop bug'lanish va anizotrop o'tkazish yo'li bilan kadmiy xalkogenidlaridan CdTe, CdS bir jinsli bo'lmagan yupqa pardalar olish texnologiyasi takomillashtirilgan;

anizotrop bug'latish usuli bilan dielektrik taglikka o'tqazib legirlangan xalkogenid yarimo'tkazgich yupqa pardalarida anomal fotokuchlanish va fotomagnit kuchlanish effektlari kuzatilishi ularda bir jinsli bo'lmagan sohalar, ya'ni berkituvchi qatlamlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqligi aniqlangan;

yorug'lik va magnit maydon ta'sirida xalkogenid yarimo'tkazgich yupqa pardalarda hosil bo'ladigan anomal fotokuchlanish va fotomagnit kuchlanishdan foydalanib elektr maydonini hosil qiluvchi qurilma ishlab chiqilgan;

optik jihatdan shaffof elastik materialdan tayyorlangan va tashqi mexanik kuchlanishlarni nazorat qilish uchun qo'llaniluvchi sezgirligi  $\sim 10^6$  nisbiy birlikkacha yetadigan tenzoo'zgartirgich yaratilgan;

tashqi ikkilamchi issiqlik ta'sirida hosil qilingan termo EYuK tomonidan quvvatlanadigan yorug'lik diodlaridan chiqarilgan 240-300 Lm yorug'lik oqimi bilan AFK elementida maksimal  $10^5$  V/sm gacha bo'lgan elektr maydonini hosil qiluvchi qurilmani yaratish usuli ishlab chiqilgan;

CdTe va CdS xalkogenid birikmalari asosida avtonom optoelektron qurilma yaratish usuli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

dielektrik taglikka olingan rux va kadmiy xalkogenidlari yupqa pardalarida kuzatilgan anomal fotoelektrik va fotomagnet kuchlanishlardan foydalanib optoelektron qurilmalar yaratilgan;

binar xalkogenid birikmalarga metall kirishmalar kiritish yo'li bilan termoEYuK koeffitsientini orttirish imkoniyati ko'rsatilgan;

yarimo'tkazgich xalkogenid materiallar asosida issiqlik, yorug'lik, magnet oqimlari va mexanik ta'sirlar vositasida elektr maydoni olish asosida avtonom ravishda tashqi energiya talab qilmay ishlaydigan optoelektron asboblari yaratish usullari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** yuqori aniqlikdagi qurilma va uskunalardan, zamonaviy va ilmiy tasdiqlangan tadqiqot usullaridan, o'lchash va ma'lumotlarni qayta ishlashning me'yoriy, tasdiqlangan kompleks usullaridan shuningdek, natijalarning yarimo'tkazgichlar fizikasi va texnikasining zamonaviy tushunchalari hamda nazariy asoslari bilan mos kelishi, shuningdek taklif qilingan ilmiy natijalardan ishlab chiqarishda foydalanish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati binar xalkogenid birikmalarga metall kirishmalar kiritish yo'li bilan ulardagi elektr o'tkazuvchanlikni orttirish hisobiga termo EYuK koeffitsientini kuchaytirish mumkinligi, anizotrop bug'latish yo'li bilan dielektrik taglikka olingan xalkogenid legirlangan yarimo'tkazgich yupqa pardalarida bir jinsli emas sohalar paydo bo'lishi, ularning uzluksiz qatorlarida esa berkituvchi qatlamlarning hosil bo'lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yarimo'tkazgich xalkogenid materiallar asosida issiqlik, yorug'lik, magnet oqimlari va mexanik ta'sirlar vositasida elektr maydoni olish hisoblanadi va noan'anaviy usulda olingan elektr maydoni vositasida, avtonom ravishda tashqi energiya talab qilmay ishlaydigan optoelektron asboblari yaratilganligida o'z ifodasini topgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xalkogenid birikmalar negizida avtonom optoelektron qurilmalar yaratish bo'yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

Yarim o'tkazgich xalkogenid materiallar yupqa pardalari asosidagi avtonom, tashqi energiya talab qilmay ishlaydigan optoelektron asboblari ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida 2018-2020 yillarda bajarilgan FA-Atex-2018176 "Oltinugurt kirishmasi bilan legirlangan kremniy monokristall plyonkalar olishning radiatsion texnologik usulini yaratish" mavzusidagi ilmiy amaliy tadqiqot loyihasida kremniy namunalari qismida fosfor izotopidan ikki bosqichda

samaradorligi yuqori bo'lgan termo-, foto-sezgir yupqa oltingugurt pardalar olishda va olingan materiallarning elektrofizik, termoelektrik hossalari o'rganishda hamda ularda yuz beruvchi fizik jarayonlarni tahlil qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2022-yil 3-noyabrdagi 2/1255-2768-son ma'lumotnomasi). Natijada, plenklar olish radiatsion texnologiyasini takomillashtirilib 12% samaradorlikka erishilgan;

binar xalkogenid birikmalarga metall kirishmalar kiritish yo'li bilan ulardagi metall o'tkazuvchanlikni orttirish hisobiga termo EYuKni kuchaytirish, yarimo'tkazgich xalkogenid materiallar asosida issiqlik, yorug'lik, magnit oqimlari va mexanik ta'sirlar vositasida elektr maydoni olish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar "FOTON" aksiyadorlik jamiyati amaliyotiga joriy etilgan ("O'zElTexsanoat" AJ uyushmasining 2022-yil 18-apreldagi 04-1/1060-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiyada olingan ilmiy natijalarga ko'ra tayyorlangan tajribaviy namunalarning elektrofizik parametrlari, fotoelektrik xususiyatlari, fotomagnit holatlari jahonda ishlab chiqarilayotgan namunalar darajasida ekanligi ko'rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 7 ta xalqaro va 4 ta Respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

#### **Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.**

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqot natijalari jami 25 ta ilmiy ishda, ulardan 8 tasi dissertatsiya ishlarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shu jumladan, 6 ta maqola xorijiy xalqaro jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 49 ta rasm, 2 ta jadvalni o'z ichiga olgan holda, 115 betni tashkil etadi.


## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati ifodalangan, maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obekti, predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ish natijalarining qo'llanilganligi haqida, hamda dissertatsiya ishining tuzilishi bo'yicha qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **"Optoelektronikada yarimo'tkazgichli elementlarning qo'llanilishi"** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusiga oid adabiyotlar sharhi keltirilgan. Optoelektronika va mikroelektronika sohasidagi tadqiqotlar natijalaridan zamonaviy fan va texnikaning turli yo'nalishlarida foydalaniladi. Optoelektronikaning asosiy elementi bu elementar optronlar. Optronni shakllantirish uchun yorug'lik manbasi, yorug'likni qabul qiluvchi tizim (foto qabul qilgich) va manbani foto qabul qilgich bilan foton

vositasida bog'lovchi qismlar kerak. Mikroelektronika rivoji uchun optron qismlarining yuqori samarador, energiya tejankor va ixcham elementlar bilan ta'minlanishi muhimdir. Bu muammoni hal qilishda optron qismlarini yupqa yarimo'tkazgich pardalaridan foydalanib tayyorlash yuqori samara beradi. Ularning geometrik o'lchamlarini millionlar darajasida kamaytirish bilan bir qatorda yarimo'tkazgich yupqa pardalarida kuzatiladigan yangi fotoelektrik hodisalardan foydalanish, funksional imkoniyatlari juda yuqori optronlar oilasini yaratish imkoniyatini tug'diradi. Shu sababli mikroelektron yupqa pardali optoelektronika sohasining shakllanish tarixi yarimo'tkazgichli yorug'lik manbai va foto qabul qilgichlarni yaratish bilan bog'liq. Yarimo'tkazgichlarning yupqa pardalarida kuzatiladigan effektlar mikroelektronika, shu jumladan, optoelektronika muammolarini hal qilishga imkon beradi. Optika va elektronika sohalaridagi erishilgan yutuqlarning qo'shilishi optoelektronikaning vujudga kelishiga asos bo'ldi.

Dissertatsiyaning **“Rux va kadmiy xalkogenidlardan foto qabul qilgichlar tayyorlashning xosliklari”** deb nomlangan ikkinchi bobida yorug'lik spektrining turli oraliqlarida fotosezgirlikka ega bo'lgan, jumladan rux sulfidi ultrabinafsha sohasi (300÷400 nm), spektrning ko'rinadigan nurlar sohasi (400÷750 nm) uchun kadmiy sulfid va kadmiy telluridi, infraqizil nurlar sohasi (750÷6000 nm) uchun qo'rg'oshin xalkogenidlari asosidagi yarimo'tkazgich elementlari mos kelishi asoslangan. Tanlangan yarimo'tkazgich materiallarning monokristall strukturalari bilan bir qatorda ularning yupqa pardalaridan ham yuqori samarador, mikroelektronika uchun qulay generator tipidagi foto qabul qilgichlar yaratish mumkin. Sulfid, selenid va telluridlardan o'ta yuqori qarshilikli bir jinsli bo'lmagan namunalar olish mumkin. Ma'lumki, generator tipidagi foto qabul qilgichlarlar uchun yupqa pardalar olishning har xil usullari mavjud bo'lib, ularning ba'zilarini tajribada sinovdan o'tkazildi masalan, vakuumda termik diskret bug'latish, “portlash” usuli, alohida tigellardan birikma elementlarini uchirish usuli va x.k.




1-rasm. Anizotrop bug'latish vakuum kamerasi

Bu usullardan eng samaralisi sifatida izovalent kirishma tanlab termik yo'l bilan anizotrop bug'latish usuli qabul qilindi. Tanlangan texnologiyada quyidagi elementlaridan foydalanilgan: taglikka harorat beruvchi pech (2) kvarts qalpoq (1) ning ustidan kiygizilib, uning harorati "xromel-alyumel" termoparasi (8) yordamida nazorat qilinadi. Taglik (3) haroratini ta'minlovchi pech vakuumda tayyor bo'lgan yupqa pardaga termik ishlov (aktivatsiya, rekristallizatsiya) berish uchun ham ishlatiladi. Tigeldagi (5) materialni uchirishdan oldingi termik tozalashdagi ifloslanishdan saqlash qurilmasi "to'sqich" (9) ham biroz takomillashtirilib, anizotrop bug'latish qurilmasida qo'llanilgan. Yangi qurilmada ochib yopish uchun elektromagnit uzatgich (4) kiritilgan. Taglikka molekular oqim (10) tushish burchagini boshqarish mexanizmi ham kiritilgan (1-rasm).

AFK-effekt tabiatiga doir har xil qarashlar mavjud, ular ichida mikrofotobatareya konsepsiyasi negizida AFK-effektning qariyb hamma xarakteristikalarini aniq tushuntirish mumkin. Bunga asosan AFK elementlarning murakkab tuzilishga ega bo'lib, u ketma-ket joylashgan juda ko'p sondagi mikroskopik sohalardan tashkil topadi. Har bir soha alohida mikrofotoelement vazifasini o'taydi. Anomal yuqori fotokuchlanish, element yoritilganda har bir mikrofotoelementda hosil bo'lgan  $kT/q$  tartibidagi elementar fotokuchlanishlarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. AFK element yagona texnologik siklda yarimo'tkazgich materialni termik bug'latib, dielektrik taglikka anizotrop o'tqazish jarayonida hosil bo'ladi. AFK elementlardagi volt-amper bog'lanishlarini nazariy va eksperimental jihatdan o'rganish AFK elementiga doir juda ko'p "xos" xususiyatlarga oydinlik kiritadi. AFK elementi uchun volt-amper bog'lanishining analitik ifodasini topish maqsadida Prins-Kummerovlarning fotodiodlar uchun umumlashtirilgan modeli negizida AFK elementi uchun fizik model shakllantirilib, uning ekvivalent sxemasi yaratilgan. Bunga asosan topilgan volt-amper nazorat bog'lanishning tahliliga asosan, bog'lanish grafigida asosan uchta soha kuzatiladi: dastlabki past kuchlanishli soha chiziqli Omik qism; undan so'ng kuchlanishning ortishi bilan tokning tezroq ortishini ko'rsatuvchi nochizig'iy soha; va uchinchi chiziqli sohani hosil qiladi. Uning grafigi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:


Nazariy volt-amper xarakteristikadagi bog'lanishlarni tajribada topish maqsadida sulfid, selenid birikmalarining yupqa pardalari olinib kuchli elektr maydonining keng intervalida volt-amper bog'lanish tekshirildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tajribada olingan volt-amper bog'lanishlarda dastlabki chiziqlilik  $0 \div 4 \cdot 10^2$  V/sm elektr maydonlarigacha saqlandi (3-rasm). Undan so'nggi nochiziqlilik nazariy natijalarga mos kelib (2-rasm) soha tajribada o'ta katta maydonlarda ham kuzatiladi. AFK-effekt sohasidagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar, bir jinsli bo'lmagan yarimo'tkazgich yupqa pardalaridagi p-n o'tishli super ko'p qatlamliliklar nazariyasini rivojlantirishiga sabab bo'ldi. AFK-strukturalarning ekvivalent sxemasi tuzilib, volt-amper bog'lanish uchun analitik ifoda topildi. Unga asosan volt-amper bog'lanishlardagi dastlabki chiziqli soha ekvivalent sxemadagi yarimo'tkazgich hajmiy sohasidagi shunt(parallel) qarshilik bilan bog'liq. Volt-amper bog'lanishining dastlabki chiziqli sohasining burchak koefitsientidan AFK-element yupqa pardalarning qarshiligi ( $R_T$ ) aniqlandi. Uning

qiymati yuqori  $10^{10} \div 10^{14}$  Om·sm tartibida bo'ldi. Demak, anomal yuqori kuchlanish faqat katta qarshilikli namunalarda kuzatiladi.



2-rasm. Nazariy VAXning dastlabki chiziqli qismi (1), nochiziqli qismlari (2,3)


Nazariy volt-amper bog'lanishlardagi tokning tez o'suvchi qismidan (2-rasm) so'ng keladigan sekin to'yinish sohasiga moyil chiziqli qismining mavjudligi, super p-n qatordagi qo'shni p-n o'tishlar orasidagi o'zaro ta'sirning (zaryad tashuvchilar almashuvi mavjud) natijasi hisoblanadi. Real p-n o'tishli AFK-element bir jinsli bo'lmagan strukturalaridagi volt-amper bog'lanishining eksperimental natijalarida uchinchi soha (3-rasm) kuzatilmadi, demak, p-n o'tishli real super ko'p qatlamli strukturalarda (tekshirilgan namunalarda), qo'shni p-n o'tishlar orasida o'zaro ta'sir bo'lmaydi.




3-rasm. Eksperimental volt-amper bog'lanishlar (CdS, PbS namunalar uchun)

Eksperimentdan olingan xulosalarni oydinlashtirish uchun olib borilgan fotomagnit o'lchashlar ham p-n- qo'shni o'tishlar orasida o'zaro ta'sir mavjud emasligini tasdiqlaydi, ya'ni  $W > L$ , bu yerdagi W-bitta o'tishning kengligi, u bir jinsli bo'lmaganlar qatoridagi elementar mikrokrystallitning chiziqli o'lchamiga mos keladi, L-esa diffuzion yo'l uzunligi. Real super p-n o'tishli bir jinsli bo'lmagan sistemalarda namunaning 1sm uzunligiga  $10^5$  dona o'tishlar (mikrokrystallit) to'g'ri keladi.

AFK-elementlarga haroratning ta'sirini o'rganish uchun maxsus havosi siyraklashtirilgan ( $10^{-2}$  mm.sim.ust.gacha) shisha kamera (kriostat) tayyorlanib, unga namuna joylashtirildi (4-rasm).



4-rasm. Kriostat. 1-namuna; 2-suyuq azot; 3-suyuq geliy; 4-shaffof oyna; 5-xavosi siyraklashtirilgan shisha kamera; 6-vakuum kran




5-rasm. AFK-elementlarning yupqa bir jinsli bo'lmagan pardalarida temperaturaga bog'liq o'zgarishlar

Kriostatda yupqa bir jinsli bo'lmagan pardaga har xil temperatura va yorug'lik berish imkoniyati mavjud. Temperaturaviy o'lchashlar asosida  $U_{AFK}(T)$ ,  $I_{q,t}(T)$  va  $R_{AFK}(T)$  xarakteristikalar o'rganildi. O'lchash natijalari 5-rasmda ko'rsatilgan.

Rasmdan ko‘rinadiki AFK elementning yupqa bir jinsli bo‘lmagan pardalarida haroratning pasayishi bilan namunalarning anomal fotokuchlanishi va qarshiligi ortar ekan. Qisqa tutashuv toki  $I_{q.t}$  hamma tekshirilgan namunalarda ham temperaturaga bog‘liq emas.

Tekshirilgan namunalarning barchasida  $U_{AFK}(T)$  va  $R_{AFK}(T)$  bog‘lanishlar xarakteri mos bo‘lib  $U_{AFK} = f(B, R)$  qonuniyat doirasida o‘zgaradi. Demak, AFK-elementlardagi birlamchi jarayon fototok generatsiyasi bo‘lib, anomal fotokuchlanish esa fototokning yuqori ichki qarshilikli  $-10^{11}Om$  pardasi orqali (fotogeneratori) o‘tishi natijasi ekan.

Dissertatsiyaning “**Xalkogenid bir jinsli bo‘lmagan yupqa pardalarida AFM-effektni o‘rganish**” deb nomlangan uchinchi bobda fotomagnet effekt galvanomagnet hodisalarning bo‘ylama turlariga mansub bo‘lib, AFK-effekt hodisasiga o‘xshash o‘rganilgan. Galvanomagnet effekt kuzatilishi uchun yarimo‘tkazgich namuna magnet maydonida joylashishi bilan bir qatorda undan aniq ma’lum yo‘nalishda tok o‘tkazilishi kerak. Yarimo‘tkazgich magnet maydonida harakat qilsa ham induksiya qonuni amalga oshib, natijada hajmiy foton manbasi E.Yu.Kni hosil qilishi mumkin. Shu maqsadda xalkogenid yupqa pardalaridan AFK-namunalar olinib, ularda anomal fotomagnet effektini har tomonlama o‘rganildi.



6-rasm. Fotomagnet kuchlanishni o‘lchash qurilmasining elektr sxemasi.

1-AFK kuchlanishni kompensatsiya sxemasi; 2-anomal fotomagnet kuchlanishni o‘lchash qurilmasi galvonometri; 3-magnet maydoni qutblari; 4-xalkogenid yupqa bir jinsli bo‘lmagan pardaning tagligi (shisha yoki slyuda); 5-polikristall yarimo‘tkazgich yupqa pardasi (AFK-element); 6-yorug‘lik oqimi; 7-indiydan vakuumda olingan kontakt

Ma'lumki, bitta p-n o'tishdagi odatiy fotomagnit kuchlanish  $1 \div 10 \frac{mkV}{E}$  dan oshmaydi. Polikristall yarimo'tkazgichlardan maxsus tayyorlangan anizotrop bir jinsli bo'lmagan yupqa pardalarda bir necha minglab p-n o'tishlarning ( $1 \text{ smda} \approx 10^5$  dona) mavjudligi va ularning anizotrop yoritilishi natijasida anomal yuqori fotokuchlanishning hosil bo'lishi (AFK-effekt), bunday p-n o'tishli super ko'p qatlamlarda fotomagnit kuchlanishning ham anomal yuqori qiymati kuzatilishi mumkinligini ko'rsatadi. Anomal fotomagnit effektini kuzatish uchun, AFK-elementga magnit maydoni ta'siri o'rganildi (6-rasm).

Nazariy bashoratlarga muvofiq AFK-effektini bir jinsli bo'lmagan yupqa pardalarda namuna sirtiga yorug'lik oqimi normal tushgan holatda, magnit oqimi unga tik, namunaga ko'ndalang yo'nalishda tushganda bo'ylama yo'nalishda AFK va AFM effektlar kuzatiladi. Anomal fotokuchlanishdan AFM kuchlanishni ajratib olish uchun maxsus AFM-kuchlanishni o'lchash sxemasi va AFK-element olish texnologiyasidan foydalanildi. Bu o'lchash sxemasidan foydalanish vaqtida yorug'lik intensivligining o'zgarmasligini ta'minlanishi kerak. Texnologik usulda ham AFM va AFK potentsiallarni ajratib olish mumkin. Ma'lumki, AFK-element olish uchun molekular oqim taglikka burchak ostida tushadi. Agar molekular oqimni AFK-elementni olish jarayonida taglikka normal tushishi ta'minlansa, anomal fotoelektrik kuchlanish hosil bo'lmaydi. O'lchash sxemasi faqat AFM-kuchlanishni qayd qiladi. Magnit maydoni AFK-namuna sirtiga parallel yo'nalib, AFK-kuchlanishning yo'nalishiga perpendikulyar bo'ladi. Agar namunaning magnit maydon yo'nalishiga nisbatan holati  $90^\circ$  ga o'zgarsa, magnit maydoni bilan bog'liq AFM-kuchlanish yo'qoladi. Yorug'lik intensivligi  $B = 3 \cdot 10^5 \text{ Lk}$  bo'lgandagi o'lchash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

| No | Namuna qalinligi (mkm) | Yoritilgandagi qarshilik, ( $10^9 \text{ Om}$ ) | $U_{AFK}$ , (V) | $U_{AFM}$ , (V) | Magnit maydoni kuchlanganligi H, (kE) |
|----|------------------------|---|-----------------|-----------------|---------------------------------------|
| 1  | 1,52                   | 2,3   | 300             | 3               | O'zgaruvchan<br>0,1                   |
| 2  | 0,9                    | 3   | 110             | 5               |                                       |
| 3  | 1,4                    | 7   | 210             | 4               |                                       |
| 4  | 1,1                    | 5   | 0               | 31              | Doimiy<br>20                          |
| 5  | 0,9                    | 2   | 0               | 110             |                                       |

Uning luks-volt, ersted-volt xarakteristikalari, hamda namunada haroratli va spektr bilan bog'liq o'lchashlar ham olib borildi. Tadqiqotlar magnit maydonining  $2.0 \div 3.5 \text{ kE}$  sohasida olib borilib, luks-volt bog'lanishning dastlabki kichik yorug'lik intensivliklarida ( $B \leq 2 \cdot 10^4 \text{ Lk}$ ) chiziqli bo'lib,  $2 \cdot 10^4 \text{ Lk} < B < 8 \cdot 10^4 \text{ Lk}$  sohasida AFM-kuchlanishning yorug'lik intensivligiga bog'liq o'sishi sekinlashadi va to'yinishga erishadi. Oq va monoxromatik yorug'liklar uchun luks-volt xarakteristikalar o'zgarishi qonuniyati o'zaro mos keladi.

Dissertatsiyaning “Yarimo‘tkazgichlarning yupqa pardalari asosida elektr manbasiz ishlaydigan optoelektron qurilmalar” nomli to‘rtinchi bobida yarimo‘tkazgichlarning yupqa pardalari sohasida olib borilgan izlanishlar, ilmiy tadqiqotlarga asoslanib yaratilgan tabiiy noelektrik manbalar hisobiga faoliyat ko‘rsata oladigan “elementar optron” yordamida yangi optoelektron qurilmalar yaratishning ba’zi namunalari haqida ma’lumotlar beriladi.


Xalkogenid materiallarning bir jinsli bo‘lmagan yupqa pardalaridan samarador fotoelementlar olinib, ulardan optoelektronika uchun funksional imkoniyatlari keng foto qabul qilgichlar sifatida foydalanish mumkin. Inson tanasi issiqligidan foydalanish dolzarb muammo bo‘lib, bu ishda uning yechimlaridan biri taklif qilingan. 7-rasmda loyihalashtirilgan optoelektron termoo‘zgartirgichning blok sxemasi keltirilgan.



7-rasm. Optoelektron termoo‘zgartirgichning blok sxemasi.

IM-issiqlik manbai (inson tanasi); 1-issiqlik tashuvchi; TE-termoelement; YD-yorug‘lik diodi; 2-to‘lqin uzatgich; AFK-generator tipidagi foto qabulqilgich; IEQ-ijro etuvchi qurilma; 3,4-qo‘shimcha moslovchi element

Qurilmaning ishlashi: Issiqlik manбайдan (IM) chiqayotgan issiqlik oqimi issiqlik uzatgich orqali termoelement (TE)ga tushadi. Termoelementda termo EYuK hosil bo‘ladi. Termotok moslovchi qurilma (3) elektr konturi orqali o‘tib yorug‘lik diodiga beriladi. Yorug‘lik diodidan chiqqan yorug‘lik oqimi to‘lqin uzatgich (2) orqali AFK-elementga uzatiladi. AFK-pardada anomal katta fotokuchlanish hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan anomal katta fotokuchlanish (4) moslovchi element yordamida elektr zanjir orqali ijro etuvchi qurilma (IEQ)ga keladi.



8-rasm. Magnit maydonning optomagnitoelektron o‘zgartirgichi

Har xil manbalarning magnit maydonlarini (yerning, biooqimlarning, yuqori voltli elektr liniyalarining va x.k.) optoelektron usul bilan elektr maydoniga aylantirish imkonini beradigan optomagnitoelektron o'zgartirgichning blok chizmasi 8-rasmda keltirilgan. Rasmda MO-magnit maydoni oqimi; Y-Yorug'lik oqimi; YYB-yorug'lik oqimini yig'ib parallel yo'naltiruvchi bloki; FME-fotomagnit element (agar FME yorug'lik nuriga perpendikulyar bo'lgan magnit maydonga joylashtirilsa, bir jinsli bo'lmagan yarimo'tkazgichda fotomagnit EYuK paydo bo'ladi); MQ-yuqori kirish qarshiligiga ega moslovchi qism bo'lib, u tranzistorlaridan iborat; YD-yorug'lik diodi (ishchi tok 30÷40 mA, ishchi kuchlanishi 2-5 V); AE-AFK elementli optik manbaga ega elektr generatori rejimida ishlaydigan foto qabul qilgich (ya'ni, AFK-element, yorug'lik oqimini qabul qilib, uni elektr maydoniga aylantiradi); IB-tashqi ishchi blok yoki chiqish yuklamasi; B-tashqi magnit maydoni.

Qurilmaning ishlash prinsipi. Agar fotomagnit element magnit maydonida bo'lsa, nurlanishlar oqimi (quyosh nurlari) magnit maydonining yo'nalishiga perpendikulyar o'tganda, fotomagnit elementda anomal yuqori fotomagnit kuchlanish AFM paydo bo'ladi. Moslovchi qurilma orqali elektr zanjiri yordamida anomal yuqori fotomagnit kuchlanish yorug'lik diodiga uzatilib yana elektromagnit to'lqin nurga aylanadi. Yorug'lik diodining yorug'lik signali optik kanal orqali AFK-elementga uzatiladi. AFK-elementda anomal katta kuchlanish paydo bo'ladi. AFK-ketma-ket ulangan bir qator mikrogeteroo'tishlar yoki boshqa potensial to'siqlardan tashkil topgan polikristall strukturali element. Bunday bir jinsli bo'lmagan yarimo'tkazgich yoritilganda, unda juda katta ventil fotokuchlanish paydo bo'ladi. SD-AE optojuftlikda yorug'lik manbai sifatida kam quvvatli (taxminan 6 Vt kichik) yorug'lik diodidan foydalanilgan bo'lib u 60 vattli lampochka kabi yorug'lik hosil qilgan u holda, quvvat sarfi 8 baravar kam.


#### Asosiy texnik kattaliklari

1. Yorug'lik diodi toki 0.03÷0.04 A, kuchlanish 2÷5 V, Yorug'lik oqimi 240÷300 Lm;
2. Qurilma vazni: 150 g;
3. Spektral diapazon: ko'rinadigan va yaqin infraqizil nurlar sohasi;
4. Ish harorati: xona harorati;
5. Korpus: Asos konstruksiya kronshteyn bilan bog'langan bo'lib E-6 tipli epoksid qatlamli (dielektrik) plastik quyilgan.
6. Qurilmaning chiqishidagi elektr maydonining maksimal qiymati  $10^5$  V/sm

Mexanik kuchlanishni aniqlash, shuningdek bosimni o'lchash fan va texnikaning ko'plab sohalarida informatsion boshqaruv masalalarining muhim yechimi hisoblanadi. Shuning uchun turli xil obektlarning muqim holatidagina emas, oniy bosim va mexanik kuchlanishini qiymatini aniqlash dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Bosim va mexanik kuchlanishni optoelektron usulda o'lchash uchun pьeozoelektrik effekt asosida ishlaydigan optron qurilmasi taklif qilinadi. Qurilmada birlamchi o'zgartirgich sifatida xalkogenidlar asosidagi fotoelastik element (FEE) qo'llaniladi. FEEga ta'sir qilayotgan bosim (mexanik kuchlanish) natijasida uning

qaytarish yoki o'tkazish koeffitsienti o'zgaradi. Mos holda foto qabul qilgichdan chiqayotgan signal ham o'zgaradi. FEE xossalarini o'rganib, bosim va mexanik kuchlanishni o'lchash tenzoo'zgartirgichlari konstruksiyalarini bir necha variantlarini taklif qilish mumkin. 9-rasmda optoelektron o'lchov tenzoo'zgartirgichining umumlashgan blok sxemasi keltirilgan.



9-rasm. Optoelektron o'lchov tenzoo'zgartirgichning umumlashgan blok sxemasi.

1-yorug'lik diodi, 2-polyaroid, 3-FEE (o'lchov tenzoo'zgartirgichning asosiy elementi); 4-analizator (A) (yassi qutblangan yorug'likning qutblanish darajasini aniqlaydi); 5-generator tipidagi foto qabul qilgich (AFK-elementi).

Qurilmaning ishlash prinsipi. Differensial tenzoo'zgartirgich fotoelastik elementi optik jihatdan shaffof elastik materialdan tayyorlanadi va tashqi mexanik kuchlanishlarni nazorat qilish uchun ishlatiladi. Mexanik kuchlanishlar ta'sirida elastik elementning sindirish ko'rsatkichining o'zgarishi, mos holda qutblangan yorug'likning o'tish ko'rsatkichi o'zgarishiga olib kelishidan foydalaniladi. Bunday tenzodatchik FEEga qo'yilgan kichik mexanik kuchlanishlarni aniqlashga qodir. Yassi qutblangan yorug'lik fotoelastik elementdan o'tib analizatorga (A) tushadi. Mexanik kuchlanish kattaligi haqidagi informatsiya o'tayotgan yorug'likning qutblanish darajasi (o'zgarishi) ko'rinishidagi chiquvchi signal sifatida foto qabul qilgichda qayd qilinadi. Foto qabul qilgichdan chiqayotgan signal o'lchov asbobiga (C20 tipidagi voltmetr) beriladi. Mexanik kuchlanish ta'sirida fotoelastik elementda qo'shaloq nur sinishi paydo bo'ladi va bu qo'shaloq nur sinishi FEEning deformatsiyasining funksiyasi bo'ladi. Bunday tenzoo'zgartirgichni sezgirligi  $\sim 10^6$  ga yetishi mumkin.

Ikkinchi variantning konstruksiyasi yuqoridagini modifikatsiyasi hisoblanadi. Uning asosiy farqi shundaki, bu konstruksiyada fotoelastik elementdan o'tayotgan va qaytayotgan yorug'lik nurlaridan foydalaniladi. Konstruksiyadagi bu o'zgarish natijasida qaytgan yorug'lik nurlaridan foydalanib masofaviy boshqarish va o'lchash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bundan tashqari konstruksiyaning bu variantida optik nurlanishning qo'shaloq o'tishi mumkin bo'ladi va bu o'lchash tenzoo'zgartirgichini sezgirlik darajasini oshiradi. Bu konstruksiyada fotoelastik elementning sirti yuqori qaytarish koeffitsiyentiga ega bo'lgan materialdan bo'lishi kerak.

O'lchov tenzoo'zgartirgichining uchinchi variantida yupqa yarimo'tkazgichli fotosezgir parda ko'rinishidagi fotoelastik element qo'llaniladi. Yupqa pardali fotoelastik element olish uchun polimer taglikka vakuumda o'tqazilgan AFK-pardalardan foydalaniladi. Polimer taglik sezilarli darajadagi qaytuvchi egilish deformatsiyasiga ega bo'ladi. Yuqori darajadagi adgeziya mexanik kuchlanishni taglikdan AFK-pardaga uzatilishini ta'minlaydi, ya'ni fotoelastik elementda egilish deformatsiyasi yuz beradi. Bu usulning asosiy yutug'i mexanik kuchlanishni AFK-pardaning har bir nuqtasiga berilishida bo'ladi.

Bu holda fotoelastik elementning barcha qismlari yupqa parda ko'rinishida bajarilgan. O'lchov tenzoo'zgartirgichning ishlashi uchun alohida tashqi elektr ta'minoti manbai kerak emas. Taklif qilinayotgan o'lchov tenzoo'zgartirgichda fotoelastik elementdan chiqayotgan signalni kuchaytirish uchun alohida kuchaytirgichlar bloki zarur bo'lmaydi. Bosimning (mexanik kuchlanishning) o'zgarishini qayd qilish, kirish qarshiligi  $10^{12}$ Om dan katta bo'lgan elektrostatik Galvanometr orqali olib boriladi.

## XULOSA

1. Uchuvchanligi bilan farqlanuvchi izovalent kirishmalarni (S, Te) vakuumda termik anizotrop bug'latish va anizotrop o'tqazish yo'li bilan kadmiy xalkogenidlari CdTe, CdS ning p-n o'tishli bir jinsli bo'lmagan yupqa pardalar olish texnologiyasi takomillashtirildi.

2. Anizotrop bug'latish yo'li bilan dielektrik taglikka o'tqazilgan xalkogenid yarimo'tkazgich yupqa pardalarida bir jinsli bo'lmagan sohalar paydo bo'lishi, ularning uzluksiz qatorlarida esa berkituvchi qatlamlarning hosil bo'lishi natijasida, ularda anomal fotokuchlanish va fotomagnit kuchlanish effektlari kuzatilib, effektning elektrofizikaviy va texnik xarakteristikalari aniqlandi.

3. Yarimo'tkazgich xalkogenid materiallar asosida yorug'lik va magnit maydon ta'sirida anomal fotokuchlanish va fotomagnit kuchlanish hosil qiluvchi qurilma yaratish usuli ishlab chiqildi.

4. Optik jihatdan shaffof elastik materialdan tayyorlangan va tashqi mexanik kuchlanishlarni nazorat qilish uchun qo'llaniluvchi va sezgirligi  $\sim 10^6$  nisbiy birlikga yetadigan tenzoo'zgartirgich ishlab chiqildi.

5. Termo EYuK tomonidan quvvatlanadigan yorug'lik manbai sifatida quvvati 6 Vt dan kichik yorug'lik diodidan foydalanilganda, undan chiqqan 240-300 Lm yorug'lik AFK elementga tushganda, qurilmaning chiqishidagi elektr maydonining maksimal qiymati  $10^5$ V/sm bo'lishi aniqlandi.

6. Olingan natijalar asosida tabiiy yorug'lik, issiqlik va magnit oqimlardan elektr maydoni hosil qiluvchi optoelektron qurilmalarni yaratishda foydalaniladigan CdTe va CdS xalkogenidli materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasini optimallashtirildi.

7. CdTe va CdS xalkogenid birikmalari asosida avtonom va tashqi energiya manbaini talab qilmaydigan optoelektron qurilmani yaratish usuli ishlab chiqildi.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ  
ИНСТИТУТЕ ФИЗИКИ ПОЛУПРОВОДНИКОВ И  
МИКРОЭЛЕКТРОНИКИ НАЦИОНАЛЬНОГО  
УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА**

---

**ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ЮЛДАШЕВ ШОХЖАХОН АБРОРОВИЧ**

**СОЗДАНИЕ АВТОНОМНЫХ ОПТОЭЛЕКТРОННЫХ УСТРОЙСТВ  
НА ОСНОВЕ ХАЛЬКОГЕНИДНЫХ СОЕДИНЕНИЙ**

**01.04.10-Физика полупроводников**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент-2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за В2022.1.PhD/T2595.**

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (ispm.uz) и на Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** **Онаркулов Каримберди Эгамбердиевич**  
доктор физико-математических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Эгамбердиев Бахром Эгамбердиевич**  
доктор физико-математических наук, профессор  
**Даулетмуратов Борибай Контлеувич**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Ташкентский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится «19» «09» 2024 г. в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 при Научно-исследовательском институте физики полупроводников и микроэлектроники Национального университета Узбекистана (Адрес: 100057, Узбекистан, г.Ташкент, ул. Янги Алмазар, дом 20. Тел: (+99871)248-79-94, факс: (+99871) 248-79-92, e-mail: [info@ispm.uz](mailto:info@ispm.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре института (зарегистрирована за № 58) по адресу: 100057, Узбекистан, г.Ташкент, ул. Янги Алмазар, дом 20. Тел: (+99871)248-79-59.

Автореферат диссертации разослан «05» «09» 2024 г.  
(реестр протокола рассылки № 58 от 05.09 2024 г.).



**Ш.Б. Утамурадова**  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.ф.-м.н., профессор

**Ж.Ж. Хамдамов**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор философии по ф.-м.н. (PhD), с.н.с.

**Н.А. Тургунов**  
Председатель Научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.ф.-м.н., доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Во всем мире уделяется особое внимание использованию электростатических полей во многих областях науки, техники и деятельности человека. В настоящее время для получения электростатического поля требуется специальный внешний источник и достаточно большая энергия. Почти во всех странах источники традиционной электроэнергии не имеют возможности обеспечения непрерывного, автономного рабочего режима устройств электростатического поля. В то же время используемые традиционные источники электроэнергии не могут в полной мере удовлетворить требованиям микроэлектроники, в частности, они не являются энергосберегающими и удобными. В этом направлении важное научно-практическое значение имеет создание преобразователей энергии с высокой эффективностью на основе полупроводников и изготовление оптоэлектронных устройств нового типа на их основе.

В развитых странах мира уделяется внимание использованию нетрадиционных, возобновляемых источников энергии, отвечающих требованиям микроэлектроники. В частности, проведение научных исследований в области создания устройств, основанных на оптоэлектронных принципах получения электростатического поля с использованием полупроводниковых пленок, отвечающих требованиям микроэлектроники и разработка научно-технических основ создания на их основе новых оптронов является одной из самых актуальных задач техники. В то же время необходимо расширить сферу научных исследований в области получения новых полупроводниковых материалов и изучения наблюдаемых в них физических явлений с целью создания оптронов с широким спектром функциональных возможностей.

В Республике уделяется особое внимание развитию научно-исследовательских работ в области разработки полупроводниковых приборов и изделий электронной техники. В Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2022-2026 годы определены задачи “по стимулированию научных исследований и инновационной деятельности, внедрению в производство энергосберегающих технологий, расширению использования возобновляемых источников энергии”. Исходя из решения поставленных задач актуальным является проведение научно-практических исследований по созданию высокоэффективных полупроводниковых преобразователей энергии, создание на их основе оптоэлектронных устройств и расширение отраслей их применения.

В некоторой степени исследования, проведенные в рамках данной диссертационной работы, отвечают требованиям, обозначенным в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 года». УП-5032 от 19 марта 2021 года «О мерах по повышению качества образования в области физики и развитию научных исследований», а также в Постановлениях

Президента Республики Узбекистан № ПП-4779 «О дополнительных мерах по сокращению зависимости отраслей экономики от топливно-энергетической продукции путем повышения энергоэффективности экономики и задействования имеющихся ресурсов», а также других нормативно-правовых документов, касающихся данной отрасли деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.** Диссертационная работа соответствует приоритетному направлению развития науки и техники Республики Узбекистан: III. «Энергия, энергосбережение, транспорт, машиностроение и приборостроение; развитие современной электроники, микроэлектроники, фотоники, электронного приборостроения».

**Степень изученности проблемы:** В ведущих научных центрах и университетах мира проводятся научные исследования в области микроэлектроники и оптоэлектроники, получения полупроводниковых структур (в том числе структур с р-п переходами), исследование их электрофизических и фотоэлектрических свойств, создание на их основе оптоэлектронных устройств, а также расширение области их применения. В частности Zhi Jiang (Япония), Tomoyuki Yokota (Япония), Kenjiro Fukuda (Япония), Hanbee Lee (Корея), K.Swapna (Индия), Sk.Mahamuda (Индия), A.Srinivasa Rao (Индия), Pallab Bhattacharya (США), Roberto Fornari (Германия), A.Darwish (ОАЭ), H.Ali (ОАЭ), Y.Hiroo, В.И.Стафеев (Россия), В.Н.Давыдов (Россия) проводили научно-исследовательские работы по повышению эффективности оптоэлектронных устройств, изучению их фотоэлектрических и электрофизических характеристик, использованию их в интегральных схемах.

Учеными Узбекистана Р.А.Муминовым, М.К.Бахадырхановым, А.Т.Мамадалимовым, С.З.Зайнабиддиновым, А.Касимахуновой, К.Э.Онаркуловым и их учениками проводились обширные исследования по изучению влияния различных примесей на свойства полупроводников, по получению нового типа полупроводниковых материалов, эффектов аномально высокого фотонапряжения (АФН-эффект) и аномально высокого фотомагнитного напряжения (АФМН-эффект) в тонких пленках и в других объектах.

Вместе с тем, важное научно-практическое значение отводится задачам получения тонких пленок из халькогенидных полупроводниковых материалов (CdTe, CdS), изучению фототермоэлектрических, фотомагнитоэлектрических явлений в тонких пленках халькогенидных полупроводников, эффектов модуляции интенсивности света и поляризованного света в тонких пленках халькогенидных полупроводников, изучению явлений, связанных с деформацией в тонких слоях халькогенидных полупроводников, а также созданию оптоэлектронного устройства, позволяющего преобразовывать механическое воздействие в электрическое поле.

